

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2023-yil 14-16-dekabr kunlari
xodimlarining Tojikiston Respublikasi SUG‘D erkin iqtisodiyot zonasidagi
“Ishlab chiqarish va servis” instituti taklifiga binoan ximat safari**

HISOBOTI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-son farmonida belgilangan vazifalar hamda Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika komissiyasining 2023-yil 28-martdagi 11-sonli yig‘ilish bayoni va O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Tojikiston Respublikasi SUG‘D erkin iqtisodiy zonasidagi “Ishlab chiqarish va servis” institutining 2023-yil 22-noyabrdagi 158-son taklif xatiga asosan hamkorlikda qo‘shma ta‘lim dasturlarini tashkil etish, fan va ilmiy-tadqiqot sohalarida aloqalarni o‘rnatish maqsadida 2023-yil 14-dekabr kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutining Korxonalar va ta‘lim muassasalari bilan ishlash bo‘yicha prorektor **A.N.Shernaev**, Marketing, amaliyot va professional talim bo‘limi boshlig‘i **A.M.Mirkomilov** va Inson resurslarini rivojlantirish bo‘lim boshlig‘i **S.Q.Sattorov** Tojikiston Respublikasi SUG‘D erkin iqtisodiyot zonasidagi “Ishlab chiqarish va servis” institutiga yetib kelishdi. Xizmat safarining birinchi kunida Ishlab chiqarish va servis instituti ta‘sischisi **Muxtorov A.**, rektori **Holiqov M.M.**, prorektor **G‘anizoda R.**, prorektor **Oxunzoda O.A.** lar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda TKTI va ICHSI o‘rtasida hamkorlikda biotexnologiya va oziq-ovqat texnologiyasi yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shma ta‘lim dasturlarini tashkil etish bo‘yicha, qo‘shma o‘quv rejalarni hamda TKTI professor-o‘qituvchilarini ICHSiga taklif qilish masalalarini ko‘rib chiqildi.





2023-yil 15-dekabr kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutining Korxonalar va ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektori A.N.Shernaev, Marketing, amaliyot va professional talim bo'limi boshlig'i A.M.Mirkomilov va Inson resurslarini rivojlantirish bo'lim boshlig'i S.Q.Sattorov lar Tojikiston Respublikasi SUG'D erkin iqtisodiy zonasining direktor o'rinbosari Xakimov Nasimjon bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda SUG'D erkin iqtisodiy zonasining ishlab chiqarish korxonalari hamda korxonalariga davlat tomonidan berilgan imkoniyatlar haqida ma'lumot berildi. Uchrashuvdan maqsad ishlab chiqarish korxonlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, korxonada xodimlarini malakasini oshish masalalari ko'rib chiqildi.



2023-yil 15-dekabr kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutining Korxonalar va ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektori **A.N.Shernaev**, Marketing, amaliyot va professional talim bo'limi boshlig'i **A.M.Mirkomilov** va Inson resurslarini rivojlantirish bo'lim boshlig'i **S.Q.Sattorov** lar Tojikiston Respublikasi SUG'D erkin iqtisodiy zonasining **АЗИЯПОЛИТЕКС** qob ishlab chiqarish zavodi, **APЧА** eshik va romlar ishlab chiqarish zavodi, **SANDALYA** kreslo ishlab chiqarish zavodi, **APЧА-МЕБЕЛ** mebellar ishlab chiqarish zavodi, **SILKCOLT** boyoq ishlab chiqarish korxonalariga tashrif buyurildi. Tashrifdan maqsad ishlab chiqarish korxonalar bilan tanishish. Ishlab chiqarishda dual ta'lim qanday yo'lga qo'yilganligini o'rganishdir. **SILKCOLT** boyoq ishlab chiqarish korxonasida mehmonlar uchun esdalik kitobiga tashrifdan olingan iliq ta'surotlarmiz, hamda tilaklarimiz yozib qoldirildi.



2023-yil 15-dekabr kunining ikkinchi yarimi Toshkent kimyo-texnologiya institutining Korxonalar va ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektori **A.N.Shernaev**, Marketing, amaliyot va professional talim bo'limi boshlig'i **A.M.Mirkomilov** va Inson resurslarini rivojlantirish bo'lim boshlig'i **S.Q.Sattorov** lar Tojikiston Respublikasi SUG'D erkin iqtisodiyot zonasidagi "Ishlab chiqarish va servis" institutining talabalari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda instituti talablariga Toshkent kimyo-texnologiya instituti haqida ma'lumot berildi. Talabalar bilan dual ta'lim to'g'risida ochiq muloqot bo'lib

o'tildi. Talablar o'zlari qiziqgan savolarga javob oldilar. Talablarni Toshkent kimyo-texnologiya institutiga dual ta'lim bo'yicha o'qishga taklif etildi. Tadbir so'ngida Toshkent kimyo-texnologiya instituti tomonidan Ishlab chiqarish va servis instituti ta'sischisi **A.Muxtorov**ga institutning esdalik sovg'asi taqdim etildi.



Korxonalar va ta'lim

muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektor

A.N.Shernayev

Inson resurslarini

rivojlantirish bo'lim boshlig'i

S.Q.Sattorov

Marketing, amaliyot va

professional talim bo'limi boshlig'i

A.M.Mirkomilov

